

SIFATLI OZIQ-OVQAT – BOLA SOG‘LIG‘I GAROVI*Mamatova Manzura Abdixoligovna**Surxondaryo viloyati**Angor tumanidagi**23-sonli Davlat muktabgacha ta’lim tashkiloti**Tarbiyachisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar salomatligi uchun sifatli oziq-ovqat mahsulotlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Sog‘lom ovqatlanishning bola organizmiga ta’siri, foydali va zararli mahsulotlar turlari, shuningdek, ota-onalar va ta’lim muassasalarining bu boradagi mas’uliyati yoritib berilgan. Tadqiqotlar natijasida, tabiiy va vitaminlarga boy mahsulotlar iste’moli bolalar rivojlanishida muhim ro’l o‘ynashi aniqlangan. Shu bilan birga, sun’iy qo’shimchalar va zararli fast-fud mahsulotlarining bolalar sog‘lig‘iga salbiy ta’siri ilmiy dalillar asosida ko’rsatilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar salomatligi, sifatli oziq-ovqat, sog‘lom ovqatlanish, foydali mahsulotlar, zararli oziq-ovqat, ota-onalar mas’uliyati.

Har bir ota-onan farzandining sog‘lom holda voyaga yetishini istaydi. Ammo sog‘lom tug‘ilgan bola ham tashqi muhit sabab turli kasallikkarga chalinishi mumkin.

Sog‘lom ovqatlanish: Bolaning to‘g‘ri ovqatlanishi uning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i uchun asosiy omildir. Vitaminlar, minerallar va oqsillarga boy oziq-ovqat iste’moli zarur.

Jismoniy faoliyat: Harakat, sport va jismoniy o‘yinlar bolalarning mushaklarini rivojlantiradi va umumiy sog‘ligini yaxshilaydi. Jismoniy faoliyat, shuningdek, ruhiy salomatlikka ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Oila va ijtimoiy muhit: Oila muhitida sevgi, qo’llab-quvvatlash va xavfsizlik bolalarning o‘zligini anglashiga yordam beradi. Ijtimoiy aloqalar va do‘stlar bilan muloqot ham muhimdir.

Ta’lim va bilim olish: Erta ta’lim va rivojlaniruvchi faoliyatlar bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Yozish, o‘qish va san’at kabi faoliyatlar ijodiy fikrlashni rivojlaniradi.

Emotsional rivojlanish: Bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni va boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rgatish muhimdir. Bu, ularning emotsiyonal intellektini oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalar: Texnologiyalarni oqilona foydalanish bolalarga yangi bilimlar olishda va kreativliklarini rivojlanirishda yordam beradi. Biroq, ekran vaqtini cheklash ham zarur.

Sog‘lom uyqu: To‘g‘ri uyqu tartibi bolalar uchun muhimdir. Uyqu bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z-o‘zini anglash: Bolalarga o‘z qobiliyatlarini va qiziqishlarini aniqlashga yordam berish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Ushbu omillarni hisobga olish, bolalarning sog‘lom va muvozanatlari rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Shuningdek, bola salomatligi har bir jamiyatning eng muhim boyliklaridan biri hisoblanadi. Sog‘lom bola – sog‘lom kelajak garovi. Shu bois bolalarning to‘g‘ri va sifatlari oziqlanishi ularning jismoniy va aqliy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda noto‘g‘ri ovqatlanish tufayli bolalarda semizlik, immunitetning pasayishi va turli kasalliklar ko‘paymoqda. Ushbu maqolada sifatlari oziq-ovqatning bola organizmiga foydasi, zararli mahsulotlarning xavfi va ota-onalarning bu boradagi ro‘li haqida so‘z yuritiladi.

Bolalar sog‘lom rivojlanishi uchun quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Tabiiy sut va sut mahsulotlari – kalsiy va oqsil manbai bo‘lib, suyaklarning mustahkam o‘sishiga yordam beradi.
2. Go‘sht va baliq mahsulotlari – temir, oqsil va omega-3 yog‘ kislotalari manbai bo‘lib, bola immunitetini mustahkamlaydi va miya faoliyatini yaxshilaydi.
3. Meva va sabzavotlar – vitamin va minerallarga boy bo‘lib, bolalar immun tizimini kuchaytiradi.
4. Don mahsulotlari (guruqlar, non, yorma) – organizmni energiya bilan ta’minlab, yaxshi hazm bo‘lishni ta’minlaydi.
5. Yong‘oq va urug‘lar – miya faoliyatini yaxshilovchi va energiya beruvchi tabiiy mahsulotlardir.

Ba’zi mahsulotlar bolalar sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- Gazlangan ichimliklar – tarkibida ko‘p miqdorda shakar va kimyoviy qo‘sishchalar mavjud bo‘lib, organizmga zarar yetkazadi.
- Fast-fud (tez tayyorlanadigan ovqatlar) – ortiqcha yog‘ va zararli qo‘sishchalar sababli bolalar semizligiga olib keladi.
- Shirinliklar va konfetlar – ortiqcha iste’mol qilinsa, tish emalini yemirib, diabet xavfini oshiradi.
- Sun’iy qo‘sishchalar va konservantlar – organizmda allergik reaksiya chaqirishi va ovqat hazm qilish jarayonini buzishi mumkin.

Shuni ham aytish joizki, Oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar yoki oziq-ovqat bilan yuqadigan kasalliklar — bu ifloslangan suv yoki oziq-ovqat orqali tanaga

kiradigan bakteriyalar, viruslar yoki kimyoviy moddalar tufayli kelib chiqadigan yuqumli kasalliklar yoki zaharlanishlar dir.

Eng ko‘p uchraydigan alomati diareya hisoblanadi. Shuningdek, oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar buyrak va jigar yetishmovchiligi, miya va asab tizimining buzilishi, reaktiv artrit, saraton va o‘lim kabi jiddiyroq oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning to‘g‘ri oziqlanishini ta’minlashda ota-onalar va ta’lim muassasalari muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar bolalariga sifatli va foydali mahsulotlarni tanlashga o‘rgatishlari, nosog‘lom mahsulotlarni kamaytirishlari kerak. Shuningdek, bog‘cha va maktablarda sog‘lom ovqatlanish dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Xulosa qilib aytganda, Sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bolalar salomatligi garovidir. Sog‘lom ovqatlanish bola organizmining to‘g‘ri rivojlanishiga va immunitetining mustahkamlanishiga yordam beradi. Ota-onalar va ta’lim muassasalari bu borada faol ishtirok etib, bolalar uchun foydali mahsulotlarni targ‘ib qilishlari lozim. Zararli oziq-ovqatlar iste’molini kamaytirish orqali bolalar kelajagini sog‘lom va baxtli qilish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). (2022). „Bolalar ovqatlanishi va sog‘liqni saqlash“. <https://www.who.int/>
2. Qodirov, B. (2021). „Bolalar uchun to‘g‘ri ovqatlanish asoslari“. Toshkent: Ilmiy Nashriyot.
3. Smith, J. (2020). „Healthy Nutrition for Children“. New York: Oxford University Press.

¹ Smith, J. (2020). „Healthy Nutrition for Children“. New York: Oxford University Press.